

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TABIIY FANLARGA DOIR BILIMLARINI  
SHAKLLANTIRISHNING DOLZAB MUAMMOLARI****Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna****Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21425965>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir ilk bilimlarni shakllantirishning dolzarb muammolari tadqiq etiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning atrof-muhit, tabiat hodisalari va ekologik madaniyat haqidagi tushunchalarini rivojlantirishda interaktiv metodlar, keys-stadi (case-study) va integratsiyalashgan yondashuvlarning o'рни tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiatshunoslik asoslarini samarali o'rgatishdagi mavjud pedagogik muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha yoshdagi bolalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, tabiiy fanlar, ekologik tarbiya, integratsiyalashgan yondashuv, interaktiv metodlar, atrof-muhit, maktabgacha ta'lim.

**Аннотация:** В данной статье исследуются актуальные проблемы формирования естественнонаучных знаний у детей дошкольного возраста посредством инновационных педагогических технологий. Анализируется роль интерактивных методов, кейс-стади (case-study) и интегративного подхода в развитии представлений детей об окружающей среде, природных явлениях и экологической культуре в современной системе образования. Также рассматриваются существующие педагогические проблемы в эффективном обучении основам естествознания в дошкольных образовательных организациях и приводятся практические рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** Дети дошкольного возраста, инновационные педагогические технологии, естественные науки, экологическое воспитание, интегративный подход, интерактивные методы, окружающая среда, дошкольное образование.

**Abstract:** This article explores the pressing issues of developing natural science knowledge in preschool children through innovative pedagogical technologies. It analyzes the role of interactive methods, case studies, and integrative approaches in enhancing children's understanding of the environment, natural phenomena, and ecological culture within the modern educational system. Furthermore, the paper examines current pedagogical challenges in effectively teaching the basics of natural sciences in preschool educational organizations and provides practical recommendations to address them.

**Keywords:** Preschool children, innovative pedagogical technologies, natural sciences, ecological education, integrative approach, interactive methods, environment, preschool education.

**Kirish.** Ma'lumki bugungi kunda ta'limga e'tibor kuchaygan. Maktabgacha sohasini kuchaytirish Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish, bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ularni har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiiy fanlarga oid dastlabki bilim, ko'nikma va tasavvurlarni shakllantirish ularning atrof-muhitni anglashida, ekologik

madaniyatini rivojlantirishda hamda tabiatga ongli munosabatni tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. {1}

Maktabgacha yosh davri bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi, kuzatuvchanligi va tafakkuri faol rivojlanadigan bosqich hisoblanadi. Shu sababli ushbu davrda bolalarga tabiiy hodisalar, o'simlik va hayvonot olami, fasllar almashinuvi, suv, havo va yer haqidagi boshlang'ich tushunchalarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yetkazish dolzarb masalalardan biri sanaladi. An'anaviy o'qitish metodlari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolalarda mustaqil fikrlash, izlanish, tajriba o'tkazish hamda amaliy faoliyat orqali bilimlarni egallash imkoniyatini kengaytiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Asqarova D. o'z tadqiqotida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali maktabgacha ta'lim tizimida integratsiyalashgan ta'lim tashkil etish haqida ma'lumotlar keltirgan. Shuningdek, STEM texnologiyasi haqida, 3D texnologiyasi qo'llashdagi olingan natijalar haqida ma'lumotlar berilgan[2. ].

Foziljonova Sh.A o'z tadqiqotida maktabgacha talim tizimida innovatsion pedagogic texnologiyalarni qo'llashning amaliy va nazariy jihallarini ilmiy jihatdan tahlil qilib ular haqida so'z yuritgan. [3].

Jumladan, maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogic texnologiyalarni qo'llashnong afzalliklarini sanab o'tgan.

Rajabova I.M o'z tadqiqotida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'limiy jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, Legokonstruksiylarni qurilishi rivojlantirish vositasi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalar hayotidagi ahamiyati va o'ziga xosligi haqidafikrlar bildirgan.

M.X.Tadjiyeva, T.I.Urmonova o'z izlanishlarida maktabgacha ta'lim sohasi vakillari uchun bolalarni rivojlantirish uchun , innovatsiya, pedagogic texnologiya atamalariga batafsil to'xtalib utgan [5] .

**Metodika.** Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga izchillik, boshqaruvchanlik, samaradorlik kabi asosiy talablar qo'yiladi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida:

-sog'liqni saqllovchi va sog'lom turmush tarzini o'qitish texnologiyalari;

-Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyalarni;

-Loyiha texnologiyalarni;

-Axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola sog'lig'ini saqllovchi va sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarning maqsadi bolaga uning sog'lig'iga ongli munosabatda shakllantirishdan iborat [4;]

Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. [5]. Maktabgacha yoshdagi o'quvchilarning tabiiy fan bog'liq bilimlarini shakllantirishda asosan boshlang'ich tushunchalarga tayaniladi.

Tabiat haqida tasvurlarini hosil qilish maqsadida kuzatish, suhbat ko'rgazmalilikka tayaniladi. Chunki ko'rish, suhbatlashish orqali yaxshi tasavvur paydo bo'ladi. Bolalarning qiziqishlarini oshirish maqsadida turli viuzllikka tayanilgan shudring paydo bo'lishi, havoda changni aylanishi, o'simliklar o'sishiga doir kichik kichik video roliklar taqdim qilinadi.

Bu orqali bolalarning tabiiy fan yuzasidan mavzulashtirilgan tushunchalar hosil qilish, tadqiqotchilik faoliyatiga zamin paydo qilish mumkin.

Mashg'ulotlar shu tarzda olib borilsa, ularning amaliy faoliyatga bog'lash mumkin:

-Bolalarning shovqin ovizini taqlid qilish;

- Tabiatda o'simlik o'sishida rangi, tezligi haqida so'rash

-Ertalab quyosh chizmasdan ovsimliklardagi shudringni kuzatish va namlikni qanday yo'qolishi haqida suhbat qilish kabi harakatga undaydigan topshiriqlar berish ham zamin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga oid bilimlarni shakllantirish ularning fikrlash, kuzatish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bolalarning tabiiy fanlarga qiziqishini oshirib, ta'lim samaradorligini kuchaytiradi. Shu bois, ta'lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 y. PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori
2. Asqarova D "Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida maktabgacha ta'limda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish" Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025 N 8 476-478 b
3. Foziljonova Sh.A "Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion pedagogic texnologiyalar" Lat. Am. J. Educ. 6, 3 (March, 2026), 301-308 b
4. M.X.Tadjiyeva, T.I.Urmonova Maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari. O'quv qo'llanma:-T.: "TGN PRINT", 2025. 204 b.
5. Z.Qodirova "Maktabgacha talimda Steam o'qitish asoslari" Namangan, 2022, 138 b